

KUNGABOQAR NAVLARINING O'SUV DAVRI DAVOMIYLIGI VA POYA BALANDLIGI

Turakulov Oybek Xolmirzayevich

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti*

Annotasiya: *Maqolada boshqoli don ekinlaridan bo'shagan yerlarda takroriy ekin sifatida 1-iyul; 10-iyul; 20-iyul muddatlarida hamda qator orasi 70 sm., o'simlik orasi 20, 25, 30, 30, 35 va 40 sm ekish sxemalarida ekilganda kungaboqarning ertapishar Sam QXI 20-80 va SUR navlari o'suv davri davomiyligi hamda o'simlik bo'yining balandligi ma'lumotlari keltirildi. Ekish muddatining kechikishi bilan o'suv davri uzayib, poya balandligi pasayishi kuzatilgan bo'lsa, har bir ekish muddatida oziqlanish maydonining kamayishi bilan o'suv davri qisqarib, o'simlik bo'yi ingichka va uzun bo'lganligi aniqlandi.*

Kalit so'zlar: *Kungaboqar, Sam QXI 20-80, SUR, ekish muddati, ekish sxemasi, oziqlanish maydoni, o'suv davri, poya balandligi.*

Аннотация: *В статье 1 июля как повторный урожай на землях, освобожденных от зерновых культур; 10 июля; При посадке в период 20 июля и при схемах посадки 70 см между рядами и 20, 25, 30, 30, 35 и 40 см между растениями ранние сорта подсолнечника Сэм QXI 20-80 и SUR имеют более длительный вегетационный период и рост растений. , Предоставляется информация о высоте. При задержке срока посадки период роста удлинялся и высота стебля уменьшалась, но при уменьшении площади питания в каждом периоде посадки было обнаружено, что период роста укорачивается, а высота растений уменьшается и уменьшается. дольше.*

Ключевые слова: *Подсолнечник, Sam QXI 20-80, СУР, период посадки, схема посадки, площадь питания, период роста, высота стебля.*

Annotation: *In the article, July 1 as a repeated crop on the land freed from grain crops; July 10; When planted in July 20 periods and in planting schemes of 70 cm between rows and 20, 25, 30, 30, 35 and 40 cm between plants, the early sunflower varieties Sam QXI 20-80 and SUR have a longer growing season and plant growth. Height information is provided. With the delay of the planting period, the growth period lengthened and the height of the stem decreased, but with the reduction of the feeding area in each planting period, it was found that the growth period was shortened, and the plant height was thinner and longer.*

Key words: *Sunflower, Sam QXI 20-80, SUR, planting period, planting scheme, feeding area, growth period, stem height.*

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son Farmonida agroinnovasion g'oyalarni joriy yetish, qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda ilg'or texnologiyalarni qo'llash vazifalari berilgan.

O'suv davri 70-85 kunlik Jaxongir, Sur, Buzuluk, Pioneer navlari va Krasotka duragaylarining urug'larini kuzgu g'alla ekinlaridan bo'shagan ang'izli yerda takroriy ekin sifatida ekish maqsadga muvofiq [1; 24-b].

Moyli kungaboqar nav va duragaylariga qo'yilgan asosiy talablar: o'simlik bo'yining nisbatan kalta (80-120 sm) bir tekis bo'lishi; yotib qolmasligi; bir savatchali bo'lishi savatchaning poyada bargdan balandroq 45-900 li burchakda joylashgan

bo'lishi; urug'i bir vaqtda pishishi va joyida savatchada qurishi, yanchilganda urug'lar undan oson ajralishi kabilar hisoblanadi [2; 21-22-b., 3; 16-19-b.].

Kungaboqarning o'sish rivojlanish jarayoni birinchi haqiqiy barglarning shakllanishi, savatcha hosil bo'lishi, gullash, pishish fazalariga bo'linadi. Bu davrlar uchun qulay tuproq-iqlim sharoitida o'rtacha ekish muddati yekilgandan unib chiqqunga qadar 9-15 kun, unib chiqqandan savat hosil bo'lgunga qadar 30-40 kun, savat hosil bo'lishidan gullashgacha 19-28 kun, gullashdan boshlab 12-17 kun. urug' hosil bo'lishidan boshlab to'liq pishishiga qadar 21-30 kun davom yetadi. Turiga qarab, umumiy rivojlanish davrining davomiyligi 90-140 kun [K.Mametgulov, 2021 6-7 b.].

Tadqiqot natijalari. Kungaboqar o'suv davrida unib chiqish, birinchi juft barg chiqarish, savatcha shakllanishi, gullash hamda pishish kabi rivojlanish fazalarini o'taydi. Olib borilgan tajriba ma'lumotlariga ko'ra kungaboqar navlari rivojlanish davomiyligiga oziqlanish maydonini ta'siri sezilarli bo'ldi. Tadqiqot natijalaridan olingan ma'lumotlar 1-2 jadvallarda keltirilgan.

Kungaboqar o'suv davrida unib chiqish, birinchi juft barg chiqarish, savatcha shakllanishi, gullash hamda pishish kabi rivojlanish fazalarini o'taydi. Olib borilgan tajriba ma'lumotlariga ko'ra kungaboqar navlari rivojlanish davomiyligiga oziqlanish maydonini ta'siri sezilarli bo'ldi.

Tajribada ekish muddati kechikishi o'suv davri davomiyligini uzayishiga olib keldi. Ekish muddati 10 iyulda ekilgan variantlarda, 1 iyulda ekilgan variantlarga nisbatan pishib yetilishi 1 kunga kechikkanligi aniqlandi. 20 iyulda ekilgan variantlarda esa 1 iyulda ekilgan variantlarga nisbatan 2-3 kun kechroq pishib yetilganligi qayd etildi.

Kungaboqar navlarining rivojlanish fazalarining davomiyligi bo'yicha olingan ma'lumotlarga ko'ra tajribadagi Sam QXI 20-80 navi urug'lari erta (1 iyul) va o'rta (10 iyul) ekilgan muddatlarda ekilgandan keyin unib chiqish kunlari bir xil bo'lishi kuzatilgan, faqat kechki 20 iyulda ekilgan variantlarda boshqa erta va o'rta muddatga nisbatan unib chiqishi vaqti 1 kun kech bo'lganligi kuzatildi.

Ekish muddati 1 iyulda ekish sxemasi 70x20-1 sm. bo'lgan variantda ekilganidan keyin 8 kunda unib chiqqan bo'lsa, bir juft barg hosil qilish 9 kun, savatcha hosil bo'lish fazasining davomiyligi 23 kun, savatcha hosil bo'lishdan gullashgacha bo'lgan davr 13 kunni, gullashdan pishishgacha 36 kun va o'suv davrining davomiyligi 81 kunni tashkil etdi. 70x25-1 sm. ekish sxemasida 82 kunda, 70x30-1 sm. ekish sxemasida 83 kunda, 70x35-1 sm. va 70x40-1 sm. ekish sxemalarida esa 84 kunda pishishi aniqlandi. Oziqlanish maydoni katta bo'lgan variantlarda 2 va 3 kunga kech hosilning pishishi kuzatildi. Ushbu qonuniyat tajribadagi boshqa ekish muddatlarida ham kuzatildi.

Tajribada ekish muddati kechikishi o'suv davri davomiyligini uzayishiga olib keldi. Ekish muddati 10 iyulda ekilgan variantlarda, 1 iyulda ekilgan variantlarga nisbatan pishib yetilishi 1 kunga kechikkanligi aniqlandi. 20 iyulda ekilgan variantlarda esa 1 iyulda ekilgan variantlarga nisbatan 2-3 kun kechroq pishib yetilganligi qayd etildi. 10 iyulda ekilgan variantlarga nisbatan, 20 iyulda ekilgan variantlarda 2 kun farqi bilan kech pishib yetildi.

1-jadval

Kungaboqarning Sam QXI 20-80 navini rivojlanish fazalari davomiyligini ekish muddati va sxemalariga bog'liqligi (o'rtacha 2020-2022 yy.)

Ekish sxemasi, sm	Rivojlanish fazalari orasidagi davrlar, kun					
	ekish-unib chiqish	unib chiqish-1 juft barg hosil qilish	1 juft barg hosil qilish-savatcha hosil bo'lish	savatcha hosil bo'lish-gullash	gullash-pishishi	o'suv davri (unib chiqish-pishish)
1.VII						
70x20-1	8	9	23	13	36	81
70x25-1 (st)	8	9	24	13	36	82
70x30-1	8	9	24	14	36	83
70x35-1	8	9	24	14	37	84
70x40-1	8	9	24	14	37	84
10.VII						
70x20-1	8	9	23	14	36	82
70x25-1 (st)	8	9	24	14	36	83
70x30-1	8	9	24	14	37	84
70x35-1	8	9	24	14	38	85
70x40-1	8	9	24	14	38	85
20.VII						
70x20-1	9	9	23	14	37	84
70x25-1 (st)	9	9	24	14	38	85
70x30-1	9	9	24	14	39	86
70x35-1	9	9	24	14	40	87
70x40-1	9	9	24	14	40	87

SUR navida ham yuqoridagi qonuniyat saqlanib qoldi. Tajribada o'rganilgan SUR navi Sam QXI 20-80 naviga nisbatan tezpishar ekanligi aniqlandi. Barcha ekish muddatdagi variantlarda SUR navi Sam QXI 20-80 naviga nisbatan 9-10 kun erta pishib yetilganligi aniqlandi.

O'simlikning o'sish jarayoni tabiiy iqlim sharoiti va navning biologik xususiyatlariga bog'liq holda hosil shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

2-jadval

Kungaboqarning Sur navini rivojlanish fazalari davomiyligini ekish muddati va sxemalariga bog'liqligi (o'rtacha 2020-2022 yy.)

Ekish sxemasi, sm	Rivojlanish fazalari orasidagi davrlar, kun					
	ekish-unib chiqish	unib chiqish-1 juft barg hosil qilish	1 juft barg hosil qilish-savatcha hosil bo'lish	savatcha hosil bo'lish-gullash	gullash-pishishi	o'suv davri (unib chiqish-pishish)
1.VII						
70x20-1	8	8	21	12	31	72
70x25-1 (st)	8	8	22	12	31	73
70x30-1	8	8	22	12	32	74
70x35-1	8	8	22	12	33	75
70x40-1	8	8	22	12	33	75
10.VII						


70x20-1	8	8	21	12	32	73
70x25-1 (st)	8	8	22	12	32	74
70x30-1	8	8	22	12	33	75
70x35-1	8	8	22	12	34	76
70x40-1	8	8	22	12	34	76
20.VII						
70x20-1	9	8	21	12	34	75
70x25-1 (st)	9	8	22	12	33	75
70x30-1	9	8	22	12	34	76
70x35-1	9	8	22	12	35	77
70x40-1	9	8	22	12	35	77

Ilmiy tadqiqot ishimizda o'rganilgan kungaboqar navlari asosiy poya balandligini o'lchash ishlari har 10 kun davomida umumqabul qilingan uslubda amalga oshirildi. Kungaboqar navlarining asosiy poya balandligi aniqlanganda, o'rganilgan navlar hamda ekish sxemasi bo'yicha ham farqlar sezilarli darajada bo'lganligi kuzatildi (1-2 rasmlar).

Ekish muddatining kechikishi o'simlik bo'yining pasayishiga olib keldi. Sam QXI 20-80 navi 20 iyul ekish muddatining 70x20-1 sm. ekish sxemasida o'simlik bo'yi 181 sm. bo'lganligi qayd etildi. Bu ko'rsatkich erta 1 iyul ekish muddatining 70x20-1 sm. ekish sxemasiga nisbatan 2 sm. past bo'ldi. Kechki 20 iyulda ekilgan variantlar orasida o'simlik bo'yi eng past ko'rsatkich 70x40-1 sm. ekish sxemasida 171 sm. bo'lganligi kuzatildi. Bu esa nazorat variantiga nisbatan 7 sm. past bo'lganligi aniqlandi.

Sam QXI 20-80 navi 1 iyul ekish muddati va 70x20-1 sm. ekish sxemasida o'simlik bo'yi o'lchashning 60-65 kunida o'rtacha 183 sm, nazorat 70x25-1 sm. ekish sxemasida 180 sm, 70x30-1 sm. ekish sxemasida 175 sm, 70x35-1 sm. ekish sxemasida 173 sm, 70x40-1 sm. ekish sxemasida esa 172 sm. bo'lganligi aniqlandi. Bu ekish muddatida eng yuqori ko'rsatkich ekish sxemasi 70x20-1 sm. bo'lgan variantda (183 sm) kuzatildi. Bundan ko'rinib turibdiki oziqlanish maydoni kengayib borishi bilan o'simlik bo'yi pasayib bordi. O'rta (10-iyul) va kechki (20-iyul) muddatlarda ham shu qonuniyat saqlanib qoldi. 10 iyulda ekilgan nazorat 70x25-1 sm. ekish sxemasida o'simlik bo'yi 179 sm. bo'lgan bo'lsa, 70x30-1 sm. ekish sxemasida nazorat variantiga nisbatan 6 sm, 70x35-1 sm. ekish sxemasida esa 8 sm. va 70x40-1 ekish sxemasida ham 8 sm. past bo'lganligi qayd etildi.


Ekish muddatining kechikishi o'simlik bo'yining pasayishiga olib keldi. 20 iyul ekish muddatining 70x20-1 ekish sxemasida o'simlik bo'yi 181 sm. bo'lganligi qayd etildi. Bu ko'rsatkich erta 1 iyul ekish muddatining 70x20-1 sm. ekish sxemasiga nisbatan 2 sm. past bo'ldi.



1-rasm Kungaboqar poyasining o'sish dinamikasi (o'rtacha 2020-2022 yy.)

Kechki 20 iyulda ekilgan variantlar orasida o'simlik bo'yi eng past ko'rsatkich 70x40-1 sm. ekish sxemasida 171 sm. bo'lganligi kuzatildi. Bu esa nazorat variantiga nisbatan 7 sm. past bo'lganligi aniqlandi. 10 iyul ekish muddatining nazorat variantiga nisbatan 20 iyul ekish muddatining nazorat variantida o'simlik bo'yi 1 sm. past bo'ldi.

Tajribada o'rganilgan SUR navida ham yuqoridagi qonuniyat saqlanib qolganligi jadval ma'lumotlaridan ko'rinadi. Ammo Sam QXI 20-80 navi SUR naviga nisbatan poyalari balandroq bo'lganligi kuzatildi. Ekish muddati 1 iyulda ekish sxemasi 70x20-1 sm. bo'lgan variantda SUR navi Sam QXI 20-80 naviga nisbatan poya balandligi 5 sm. past bo'lgan bo'lsa, 70x25-1 sm. bo'lgan nazorat va 70x30-1 sm. ekish sxemalarida ham 5 sm, 70x35-1 sm. va 70x40-1 sm. bo'lgan ekish sxemalarida esa 7 sm. past bo'lganligi qayt etildi.



2-rasm Kungaboqar poyasining o'sish dinamikasi (o'rtacha 2020-2022 yy.)

SUR navining kechki 20 iyulda ekilgan variantlarda poyalar balandligi 163 sm. dan 178 sm. gacha bo'lganligi aniqlandi. Ushbu navda ham ekish sxemasi 70x40-1 sm. bo'lgan variantda poya balandligi eng past ko'rsatkich 163 sm. bo'lganligi qayd etildi. Har ikkila navda ham oziqlanish maydoni kichik bo'lsa o'simlik poyalari ingichka bo'lib bo'yi baland bo'lganligi aniqlandi. Oziqlanish maydoni katta bo'lishi aksincha o'simlik poyalari yo'g'onlashib bo'yini nisbatan kalta bo'lishiga olib keldi.

Tajribadan olingan ma'lumotga ko'ra, o'rganilgan navlardan SUR navi Sam QXI 20-80 naviga nisbatan erta pisharligi isbotlandi. Barcha ekish muddatlarida oziqlanish maydoni ortgan sari o'suv davri 2-4 kunga kech bo'lganligi aniqlandi.

Kungaboqarni takroriy ekin sifatida ekilganda ekish muddati kechikib borishi kungaboqar navlarining poyasi kalta bo'lishiga olib kelsa, oziqlanish maydoni kichik bo'lishi o'simlik bo'yini uzun va poyasi ingichka bo'lishiga olib keldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Amanova A.E., Rustamov A.S. Moyli ekinlar jahon kolleksiyasini o'rganish bo'yicha uslubiy qo'llanma// Toshkent "Bioekoson" 2010 s. 24
2. Abdukarimov D.T., Lukov M.K., Lukova I. Boshqoli don ekinlaridan keyin takroriy ekin sifatida kungaboqar o'stirishning samarali usuli. // O'zbekiston q-x jurnali. № 5. 2005. 21-22 b.
3. Abdukarimov D.T. Lukov M.K. Xoliyarov I.X. Kungaboqar oziqabop navlarining yaratilishi // Qishloq xo'jaligi, chorvachilik va veterinariya sohalarida innovasion tadqiqotlar va ularni rivojlantirish istiqbollari ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari Samarqand, 2019 yil 17-18 iyun, B. 16-19.
4. Mametgulov K., G.Novruzov, Y.Palyazova, M.Nursahedov Kungaboqar yetishtirish bo'yicha qo'llanma// Turkman qishloq xojalik instituti, Qishloq xojalik tadqiqot va ishlab chiqarish markazi 2021 yil 6-7 b.
5. Фазлиев, Ж. Ш. (2023, October). ТОМЧИЛАТИБ СУҒОРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ ОРҚАЛИ СУҒОРИЛГАН ОЛМА БОҒЛАРИНИНГ ТУПРОҚ АГРОКИМЁВИЙ КЎРСАТКИЧЛАРИ. In Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities (Vol. 2, No. 11, pp. 19-23).
6. Фазлиев, Ж. Ш. (2019). EFFICIENCY OF USE OF CLAY WATER WITH DROP IRRIGATION. ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ, (4).
7. Xudayev, I. J., & Tojiyev, S. M. (2023). NAMLATGICH-BLOKLARDAN HOSIL QILINGAN EKLANLI EGATLARDAN G 'O 'ZANI SUG 'ORISH TEXNOLOGIYASI. In Uz-Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 514-519).
8. Худайев, И., & Фазлиев, Ж. ТЕХНОЛОГИЯ КАПЕЛЬНОГО ОРОШЕНИЯ САДОВ И ВИНОГРАДНИКОВ. JURNALI, 176
9. Fazliyev, J. (2017). Drip irrigation technology in gardens. Интернаука. Science Journal, 7(11).
10. Fazliyev, J. (2018). Modern irrigation methods for gardens. Science, 22, 24-26.
11. Фазлиев, Ж. Ш., & Баратов, С. С. (2014). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ГЛИНИСТОЙ ВОДЫ ПРИ КАПЕЛЬНОМ ОРОШЕНИИ. The Way of Science, (4), 77.
12. Fazliyev, J. EFFICIENCY OF APPLYING THE WATER-SAVING IRRIGATION TECHNOLOGIES IN IRRIGATED FARMING «ИНТЕРНАУКА» Science Journal № 21 (103) June 2019 г.
13. Khudaevev, I., & Fazliev, J. (2022). Water-saving irrigation technology in the foothill areas in the south of the Republic of Uzbekistan. Современные инновации, системы и технологии, 2(2), 0301-0309
14. Фазлиев, Ж. Ш. (2017). Боғларда томчилатиб суғориш технологияси. Интернаука, (7-3), 71-73.
15. Худайев, И., & Тожиев, Ш. (2023). БОҒ ВА УЗУМЗОРЛАРДА ТОМЧИЛАТИБ СУҒОРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИНИ ЖОРИЙ ҚИЛИШНИНГ САМАРАДОРЛИГИ. Talqin Va Tadqiqotlar, 1(1). извлечено от <https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/220>
16. Фазлиев Жамолiddин, Тожиев Шерзод, & Холиқов Шарифбек. (2024). СПОСОБЫ ЭКОНОМИИ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ В САДАХ. Uz-Conferences, 1(1), 520–525. Retrieved from <https://uz-conference.com/index.php/p/article/view/110>

17. J.Sh.Fazliev., Sh.M.Tojiev., Sh.D.Khalikov. (2024). EFFICIENCY OF USE OF CLAY WATER WITH DROP IRRIGATION. Uz-Conferences, 1(1), 504–509. Retrieved from <https://uz-conference.com/index.php/p/article/view/107>
18. I.J.Xudayev, I.J.Xudayev, & Sh.M.Tojiyev. (2024). NAMLATGICH-BLOKLARDAN HOSIL QILINGAN EKRANLI EGATLARDAN G‘O‘ZANI SUG‘ORISH TEXNOLOGIYASI. Uz-Conferences, 1(1), 514–519. Retrieved from <https://uz-conference.com/index.php/p/article/view/109>
19. Khamidov, M. K., Juraev, U. A., Buriev, X. B., Juraev, A. K., Saksonov, U. S., Sharifov, F. K., & Isabaev, K. T. (2023, February). Efficiency of drip irrigation technology of cotton in saline soils of Bukhara oasis. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 1138, No. 1, p. 012007). IOP Publishing.
20. Sharifov Firdavs, & Mirzamurotov Mirshod. (2024). G‘O‘ZA O‘SIMLIGINI YETISHTIRISHDA SUV TEJAMKOR SUG‘ORISH TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH. Uz-Conferences, 1(1), 461–464. Retrieved from <https://uz-conference.com/index.php/p/article/view/98>

